



UDK:141.336:17

Akbar ALIMOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD
E-mail: a.alimov@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA MA'NAVY-AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY TALQINI Annotatsiya

Ushbu maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining falsafiy talqini tahlil qilinadi. Mutafakkirning falsafiy va axloqiy qarashlari Sharq falsafasi va islomiy axloqiy ta'limotlar kontekstida o'rganilib, ularning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Koshifiy asarlarida ilgari surilgan adolat, vijdon, sabr, saxovat va odob kabi axloqiy kategoriyalarining falsafiy mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Koshifiy merosining zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Husayn Voiz Koshifiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, falsafiy talqin, axloq, Sharq falsafasi, pedagogik qarashlar, komil inson, tarbiya, ma'naviyat, ijtimoiy ong.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХУСЕЙНА ВАИЗА КОШИФИ

Аннотация

В данной статье анализируется философская интерпретация духовно-нравственных ценностей в произведениях Хусейна Ваиза Кошифи. Философские и этические взгляды мыслителя рассматриваются в контексте восточной философии и исламских нравственных учений, при этом подчеркивается их роль в совершенствовании человека и развитии общества. Также раскрывается философская сущность таких этических категорий, как справедливость, совесть, терпение, щедрость и этикет, которые освещаются в трудах Кошифи. В результате исследования обосновывается значение наследия Кошифи в современной системе духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: Хусейн Ваиз Кошифи, духовно-нравственные ценности, философская интерпретация, этика, восточная философия, педагогические взгляды, совершенный человек, воспитание, духовность, общественное сознание.

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE WORKS OF HUSAYN VOIZ KOSHIFI

Annotation

This article analyzes the philosophical interpretation of spiritual and moral values in the works of Husayn Voiz Koshifi. The thinker's philosophical and ethical views are studied within the context of Eastern philosophy and Islamic moral teachings, highlighting their role in human perfection and social development. In addition, the philosophical essence of ethical categories such as justice, conscience, patience, generosity, and etiquette, which are emphasized in Koshifi's works, is examined. The study substantiates the significance of Koshifi's legacy in the modern system of moral and spiritual education.

Keywords: Husayn Voiz Koshifi, spiritual and moral values, philosophical interpretation, ethics, Eastern philosophy, pedagogical views, perfect human, education, spirituality, social consciousness.

Kirish. Insoniyat tamaddunining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladigan Markaziy Osiyoda bashariyatning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi boy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllangan. Xususan, ajdodlarimiz tomonidan sharqona odob-axloq va axloq falsafasiga oid yaratilgan nodir yozma meros namunalari bugungi globallashtirish va axborotlashuv jarayonlari jadallashgan davrda ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Shu ma'noda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga mustaqillik g'oyalari, milliy an'analarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda"[1].

Bu borada Husayn Voiz Koshifiy fenomenini o'rganish hozirgi davrda yoshlar ijtimoiy-madaniy muhitini sog'lomlashtirishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat

qiladi. Koshifiy o'z asarlarida inson kamoloti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hamda shaxsning ma'naviy yetukligi uchun muhim bo'lgan sharqona odob-axloq meyorlarini tizimli ravishda yoritishga alohida e'tibor qaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Husayn Voiz Koshifiy merosi Sharq va G'arb olimlari tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, uning asarlari axloq falsafasi, adabiyotshunoslik, tarix va pedagogika nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Xususan, Markaziy Osiyo va Eron hududidagi tadqiqotchilar Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Futuvvatnoma" kabi asarlarini ma'naviy-axloqiy ta'limotning muhim manbasi sifatida tahlil qilganlar. Jumladan, M.K.Behrux, I. Mo'minov, M. Xayrullayev, A. Qayumov, N.Komilov, R.Mahmudov, N.O.Usmonova Y.Jumaboyev, Sh.Mamidova kabi tadqiqotchilar tomonidan Sharq mutafakkirlari merosini o'rganish jarayonida Koshifiy ijodiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda uning axloqiy qarashlari, komil inson haqidagi

g'oyalari va pedagogik merosi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tahlil qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Dissertatsiyada tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ilmiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik tamoyillariga tayangan holda qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik hamda germenevtik yondashuv usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar orqali o'rganilayotgan muammoning rivojlanish bosqichlari, ichki mantiqiy bog'liqliklari hamda mazmun-mohiyati tizimli ravishda tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Axloq falsafasini bayon etishida ratsionallik tamoyiliga tayanishi Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining eng katta yutug'idir. Husayn Voiz Koshifiyning fikricha kishi o'zining axloqiy fazilatlarini doimo takomillashtirib borishi kerak, ya'ni aql, farosat va idrok orqali o'z-o'zini tarbiyalab borishi lozim. Alloma buni quyidagicha ifoda etadi: "Zero, insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go'zal va hamida xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish mumkin"[2;16]. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida kishidagi axloqiy fazilatlar tarbiya orqali takomillashtirib borishini asoslab beradi. Shuning uchun axloq odob qoidalari bayon etilgan asarlarida kishilarni go'zal axloqiy fazilatlarini o'zida tarbiyalab borishga hamda mazkur fazilatlarga qarshi bo'lgan illatlardan xalos bo'lishga chaqiradi.

Koshifiy kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo'ylik kabi axloqiy fazilatlar xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Ohistalik va shoshilmaslik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o'rni bayon etadi. Asar muqaddimasida bu xususida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: "Hakimlar chiroyli xulq shunday bir yo'lki, bu yo'ldan yurmay turib, izzat va sharif manziliga yetib bo'lmaydi va bu yo'lga qadam qo'ymay turib vujud raxtini hayvonot biyobonidan insoniyat doril mulkiga yetkazib bo'lmaydi, deyдилar. Odamlarning qay birlarida chiroyli xulq va yoqimli xislatlar namoyon bo'lsa, shu kishilar zebo ko'rinadilar". Husayn Voiz Koshifiyning fikriga ko'ra insonning ulug'vorligi va yuksak ma'naviyati uning chiroyli xulqi va yoqimli xislatlariga bog'liqdir.

Koshifiyning axloqiy asarlarda asosan kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi axloqiy fazilatlarini takomillashtirishning falsafiy tahlili ishlab chiqilgan. Husayn Voiz Koshifiy insonni o'z-o'zini tashkillashtirish, tarbiyalash orqali barcha axloqiy fazilatlarini kamolot darajasiga yetkazish mumkinligiga urg'u beradi. Inson axloqiy fazilatlarini bayon etar ekan hayo xususida shunday deydi: "Hayoning ma'nosi yomon ish qilishdan uyalishdir. Odamzotga hayo sharif xislat va maqbul siyratdir". Alloma hayo xususidagi mulohazalarini bayon etar ekan, uning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "Agar sharmu hayo oradan ko'tarilsa va odam hech kishidan uyalmasa, olamning tartibi izdan chiqadi, odamlar orasida yaxshi rasmu odatlar bitadi, kishilar hayotiga putur yetadi. Ular bir-birlari bilan diyonat saqlamaydilar, oqibat kuchlilar zaiflarni yo'q qiladi. Ammo hayo shunday kuchli bir sifatki, u odamlarning faqat o'zlari hohlagan ishlarni qilishga yo'l qo'ymaydi" [2]. Husayn Voiz Koshifiyning bu fikrlari XX asrda G'arbiy Yevropadagi sharmu hayo ko'tarilganligi tufayli axloqsizlik avjiga chiqqanligini bashorat qilgandek. Alloma har bir kishi hayoga rioya qilishi lozimligini uqtirib shunday deydi: "Demak, katta-yu kichik-ka hayodan katta foydi bor, yaxshi odatlarning mevasi hayo suvi va oftobidan parvarish topmasa, doim xom turaveradi" [2]. Koshifiy hayoni bir necha turlari borligi haqida ham to'xtalib o'tadi hamda qiziqarli va ibratli rivoyat va hikoyalarni orqali insonni o'z-o'zini tashkillashtirishida sharm hayoli bo'lishga chaqiradi.

Insonning ruhiy-ma'naviy o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonida bir ishga ahd qilish, jiddu-jahd va sobitqadamlik

xislatlarini xususida to'xtalib o'tar ekan shunday deydi: "Ahd qilishning ma'nosi ko'ngil hohlagan ish ustida mahkam turishdir. Ahd qilish murod va maqsadlar karvonining boshlovchisi, har qanday ish va mushkulotlarning hal qiluvchisidir" [2]. Koshifiy bu yerda insonning o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilishda qat'iyatlikka urg'u beradi. "Haqiqiy ahd shundayki, bir kishi birorta ishni amalga oshirish uchun bel bog'lasa va bir muhim ishni bitirishga kirishsa, to'siq va qarshiliklarni yengib, o'z maqsadiga erishishda sustlikka yo'l qo'ymaydi" [2]. Qat'iyatlik inson irodasi va mataonatiga darajasiga xos bo'lib, bu jihatlarning qay tarzda namoyon bo'lishi avvalo kishining o'zigagina bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Ahd qilishdan tashqari jiddu jahd kabi fazilat xususida to'xtalib o'tar ekan Koshifiy shunday deydi: "Jidning ma'nosi maqsadlarga yetish uchun ko'ngilda yangi niyat qilishdir. Jahdning ma'nosi esa shu niyatga yetish uchun qattiq harakat qilishdir... Bu sifat himmatga asoslanadi. Odamning himmati qanchalik ulug' bo'lsa, maqsadga yetish jiddu jahdi shunchalik ko'p bo'ladi. Himmati baland kishi jiddu jahd qilishda mashaqqatlardan qo'rqmaydi" [2].

Husayn Voiz Koshifiy inson rioya etishi lozim bo'lgan axloqiy fazilatlarini falsafiy tahlilini bayon etar ekan, axloq-odob xususida sharqona etiket qoidalariga ham alohida e'tibor qaratadi. Allomaning tasavvufga oid "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati" asarida har biri kishi rioya etishi lozim bo'lgan taom yeyish va suv ichish odobi, o'tirish va suhbat qilish odobi, kiyim kiyish va safar qilish odobi, mehmon kutish va yo'lda yurish, salom berish, birodarlar haqini ado etish jarayonidagi etiket qoidalari batafsil yoritiladi. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan bayon etilgan axloq odob qoidalari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Masalan, alloma tomonidan taom yeyish odob qoidalari shunchalik aniq yoritib beriladi-ki, unda sharqona etiketning eng nozik jihatlari ham qamrab olingan.

Alloma taom yeyish odobi xususida shunday deydi: "...hayvonning yeyishi bilan insonning yeyishi orasida farq bo'lishi kerak. Chunki hayvon yeyish uchun yashaydi, odam esa yashash uchun yeydi. Bu ikki xil yeyishning farqi odobda bilinadi. Ya'ni odamzod taom yeyish odobi va qoidalarini saqlaydi, ammo hayvonlar bundan bexabardirlar". Husayn Voiz Koshifiy insonning buyukligi, uning ma'naviy kamoloti avvalo axloqi, hatto taom yeyishda ham muayyan axloq odob qoidalariga rioya etishi bilan belgilanishiga alohida urg'u beradi.

Husayn Voiz Koshifiy o'zining ko'p qirrali ilmiy faoliyatida inson kamolotini falsafiy va axloqiy tahlil qilishning yaxlit tizimini yaratdi. Uning asarlari, xususan, Axloqi Muhsiniy, Futuvvatnomai sultoniy va Lavoyi-ul-qamar kabi kitoblari XV asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurining muhim manbalari hisoblanadi.

Koshifiy falsafasining markazida Inson va uning tabiatini mukammallashtirish muammosi turadi. U insonni ikki olam (moddiy va ma'naviy) tutashgan nuqta sifatida talqin qiladi. Muallif fikricha, insonning axloqiy qiyofasi shunchaki xulq-atvor me'yorlari majmuasi emas, balki uning borliq bilan bo'lgan ontologik bog'liqligidir.

Koshifiyning Futuvvatnomai sultoniy asari nafaqat hunarmandlar kodeksi, balki ijtimoiy axloq falsafasining yuksak namunasi hisoblanadi. Unda futuvvat (javonmardlik) tushunchasi quyidagi falsafiy kategoriyalar orqali ochib beriladi:

Iytor (Ezgulikni ustun qo'yish): O'z manfaati va ehtiyojidan o'zganing manfaati ustun qo'yish orqali jamoaviy birlamlikka erishish.

Vafodorlik va ahdga vafo: Ijtimoiy shartnomalarning axloqiy asosi.

Tevor (Saxovat): Boylikni shaxsiy boylik emas, balki ijtimoiy farovonlik vositasi sifatida ko'rish.

Koshifiy nazarida, futuvvat - bu shaxsiy manfaatdan voz kechib, ijtimoiy uyg'unlikka xizmat qilishdir. Bu g'oya o'z davri uchun inqilobiy bo'lib, u hunarmandlar va savdogarlar qatlamini axloqiy mas'uliyat bilan bog'lashga xizmat qilgan.

Koshifiy Axloqi Muhsiniy asarida axloqiy tarbiyaning psixologik mexanizmlarini tahlil qiladi. U inson nafs, aql va yuragi o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda muvozanat (i'tidel) qonuniyatini ilgari suradi. Falsafiy jihatdan, Koshifiy uchun axloqsizlik - bu nafsning aql ustidan hukmronlik qilishidir. Shuning uchun, u tarbiyani aqlning nafs ustidan g'alaba qozonishi va insonni "yuksak insoniylik" (insoni komil) darajasiga ko'tarish jarayoni deb biladi.

Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy merosi zamonaviy falsafa uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan. Uning asarlaridagi asosiy xulosalar quyidagilardan iborat: Axloq-bu shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotning o'zagi.

Bilim (ilm) va amaliyot (amal) birligi inson kamolotining shartidir.

Ijtimoiy adolat har bir shaxsning o'zini axloqiy nazorat qilishi (o'zini tarbiyalashi)dan boshlanadi.

Shunday qilib, Koshifiyning falsafiy tizimi insonni borliqning faol subyekti sifatida ko'rib, unga yuklangan axloqiy mas'uliyatni ijtimoiy farovonlik bilan uzviy bog'laydi. Bu esa

uning merosini ma'naviyat falsafasining nodir namunalaridan biriga aylantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan yuksak axloqiy-odob va muomala madaniyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab axloqiy-falsafiy qarashlar tizimini yaratgan bo'lib, uning tarixiy ildizlari zardushtiylikning muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto" gacha borib taqaladi. Ushbu boy ma'naviy meros asrlar davomida rivojlanib, takomillashib, jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim nazariy va amaliy mezoniga aylangan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mutafakkirlari qatorida Husayn Voiz Koshifiy ham o'zining ilmiy-falsafiy asarlarida axloqiy tarbiya masalalarini chuqur nazariy asosda tahlil qilib, uni nafaqat nazariy, balki amaliy-pedagogik jihatdan ham boyitgan. Uning asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlarini hamda jamiyatdagi o'zaro munosabatlar madaniyati keng qamrovda va tizimli yondashuv asosida yoritilgan.

Koshifiy axloqiy tarbiya jarayonini ratsional va me'yoriy tamoyillar asosida izohlab, sharqona odob-axloq me'yorlarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. U inson xulq-atvorini ongli boshqarish, ezigulik, adolat va ma'naviy poklikka intilish orqali komil insonni shakllantirish mumkinligini nazariy jihatdan asoslab bergan va bu borada izchil pedagogik-falsafiy konsepsiya yaratgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy; Axloqi muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar M.Aminov, F.Xasanov. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.- 376 b.
3. Alimov A.N. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta'limotida ratsionallik yondashuv masalalar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023. – 50 b.
4. Mahmudov R. Husayn Voiz Koshifiyning falsafiy-axloqiy qarashlari. Monografiya. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2015. - 154 b.
5. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.
6. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.